



## QONUNNI BILMASLIK JAVOBGARLIKDAN OZOD QILMAYDI

---

*Begmatov Jasur Abdinabievich*  
*Mirobod tumani IIO FMB Tergovchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zboshimchalik jinoyati bo'yicha yoritiladi. Masalan, ma'lum bir jabrlanuvchining qarzini qaytarib berishga majbur etish maqsadida bironing mulkini o'zboshimchalik bilan tortib olish tushuniladi.

**Kalit so'zlar:** Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi, Jinoyat kodeksi, o'zboshimchalik jinoyati.

**Kirish:** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasida: "Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlarini, huquqlari va erkinliklariga putur etkazmasliklari shart", deb ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki, jahondagi qator rivojlangan mamlakatlar kabi O'zbekistonda xam insonning shaxsiy huquq va erkinliklarini ta'minlash davlat tomonidan kafolatlangan.

Bugungi kunda fuqarolarning huquqlari, erkinliklariga hamda jamiyat va davlat manfaatlariga zarar etkazish xolatlari kuzatilmoqda. SHuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, qabul qilingan qarorlar ijrosi bajarilmasligi oqibatida jamiyatimizda bir qator ijtimoiy jihatdan zararli illatlarning takrorlanishi natijasida fuqarolarning huquqlari poymol etilib, natijada bir qancha fuqarolar jabrlanuvchiga aylanib qolish holatlari kuzatilmoqda. Masalan, ma'lum bir jabrlanuvchining qarzini qaytarib berishga majbur etish maqsadida bironing mulkini o'zboshimchalik bilan tortib olish milliy qonunchiligimizdagi talablarga zid kelishini anglash qiyin emas, zero kishining qonunni bilmasligi uning javobgarlikdan ozod qilinishiga sabab bo'lmaydi.

**Asosiy qism:** O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon jamiyatimizda keng demokratlashtirish ishlari jadallashtirib, kuchli fuqarolik jamiyatini yaratish sari intilmoqda ekan, oxirgi yillarda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida o'z haq-huquqlarini o'zboshimchalik bilan amalga oshirish oqibatida ma'muriy va jinoyat qonunchiligi talablari buzilishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining 200-moddasida nazarda tutilgan, O'zboshimchalik, ya'ni o'zining haqiqiy yoki nazarda tutilgan huquqini fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlariga, davlat manfaatlariga yoki jamoat manfaatlariga



jiddiy zarar yoki ziyon keltirmagan holda o'zboshimchalik bilan amalga oshirishi hisoblanib, bunda fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Agar ushbu ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan huquqbuzar bir yil davomida fuqarolik huquqlari yoki qonuniy manfatlari, shuningdek davlat va jamoat manfatlariga ko'p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon etkazilsa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 229-moddasi bilan javobgarlikka tortiladi. Mazkur moddaga ko'ra, shu qilmishni amalga oshirgan shaxs bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Birgina Toshkent shahar Mirobod tumani Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi huzuridagi Tergov bo'limi misolida joriy yilning 10 oyi davomida fuqarolarimiz o'z huquqlarini etarli darajada bilmasliklari oqibatida O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining 200-moddasida nazarda tutilgan, O'zboshimchalik bilan bog'liq bo'lgan 8 ta xuquqbuzarlik xolatlari xamda Jinoyat Kodeksining 229-moddasida nazarda tutilgan, O'zboshimchalik bilan bog'liq xolat bo'yicha 6 ta jinoyat ishi qo'zg'atilib tergov xarakatlari olib borilgan. Tergov xarakatlari jarayonida fuqarolar qilgan jinoyatlarini anglab etgan xolda o'z ayiblariga iqror ekanliklarini ma'lum qilishgan. Bundan tashqari fuqarolarga qonun barchaga barobarligini, jinoyat uchun jazo muqarrarligi takidlab o'tilib, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunga muvofiq, har qanday fuqaro o'z huquqlari buzilganligi to'g'risida vakolatli davlat organlariga murojaat qilish huquqiga ega ekanligi. Ushbu qonun talablariga ko'ra, fuqarolar ariza, shikoyat va taklif orqali o'z murojaatlarini yozma, og'zaki va elektron tartibda tegishli davlat organlariga taqdim qilishlari mumkinligi xaqida xuquqiy tavsiyalar berilib, ularning xuquqiy onglarini oshirish maqsadida xar bir tergov idorasi xodimlari tomonidan oyiga to'rt marotaba maxalla fuqarolar yig'inlari, idora va tashkilotlarda jinoyatlarni oldini olish yuzasidan turli mavzularda chiqishlar va davra suxbatlari o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan. Bu bilan tergov idoralari xodimlari fuqarolarni jinoyat qurboniga aylanishlarini oldini olishga o'z xissalarini qo'shmoqdalar.

Hozirgi kunda fan-texnika rivojlangan davrda yashayotgan ekanmiz, texnologik kommunikatsion tizmning rivoji kishilik jamiyatining yana bir pag'onaga ko'tarilishiga sababchi bo'lganligini e'tirof etish zarur. SHundan kelib chiqib, fuqarolarimiz ham zamon talablariga mos usulda o'zlarining qiziqtirgan savollari va



boshqa turdagi murojaatlarini elektron tartibda davlat organlariga bildiradilar; buni hukumat davlat portaliga kirgan holda amalga oshiradilar. Ushbu hukumat portalida fuqarolarni qiziqtirgan boshqa davlat organlarining ham elektron manzillari ro'yxati keltirib o'tilgan.

Hurmatli fuqarolar, siz hozirgi kunda o'zboshimchalik jinoyatidan aziyat chekyapsizmi, sizga tegishli bo'lgan mol-mulkingiz yoki boshqa turdagi huquqlaringiz poymol bo'lmoqdami-unda siz o'rnatilgan tartibda davlat organlariga murojaat eting. Sizning murojaatlaringiz e'tiborsiz qoldirilmasdan, qonuniy tartibda ko'rib chiqiladi xamda bu haqda sizga ma'lum qilinadi. O'z haq-huquqlaringiz poymol bo'lishiga yo'l qo'ymang. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta'kidlab o'tilganidek, xar bir O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasining muhofvzasidadir.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi "O'zbekiston" nashriyoti.
- 2.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual Kodeksi //URL:http://.lex.uz.
- 3.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi //URL:http://.lex.uz.
- 4.O'zbekiston Respublikasining Mamuriy Javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi//URL/http:lex.uz.